# “Urug’chilik to’g’risida”gi Qonuniga muvofiq, mahalliy yetishtiriladigan va ekport - import qilinadigan barcha turdagi qishloq xo’jaligi ekinlari urug’lari va ko’chatlarni sertifikatlashtirish

## Sertifikatlashtirish bosqichlari

Sertifikatlashtirish yuzasidan ariza qabul qilish va uni ko’rib chiqish



↓

Sertifikatlashtirish bo’yicha qaror qabul qilish va sinov dasturini tayyorlash



↓

Namunalarni identifikasiya qilish va namuna tanlab olish



↓

Olingan natijalarni tahlil qilish, muvofiqlilk sertifikatini berish yo’ki uni berishni rad etish



↓

Muvofiqlilk sertifikatini Davlat reestrida ro’yxatga olish



## Ekinboplik sifatini aniqlash

- Unuvchanlik va yashovchanlik
- Urug’ tozaligi va boshqa aralashmalar
- Kasallik va zararkunandalar bilan zararlanganlik
- Urug’ haqiqiyligi va 1000 dona vazni
- Urug’ namligi
- Mexanik shikastlanganligi va boshqa defektlar mavjudligi
- Ko’chat materiallarida o’lchashlarni aniqlash

## “Urug’chilik to’g’risida”gi Qonuniga muvofiq, mahalliy yetishtiriladigan va ekport - import qilinadigan barcha turdagi qishloq xo’jaligi ekinlari urug’lari va ko’chatlarni sertifikatlashtirish

O’zbekiston Respublikasining “Urug’chilik to’g’risida”gi O’RQ-521-sonli Qonuniga muvofiq, Respublikada mahalliy yetishtiriladigan va ekport - import qilinadigan barcha turdagi qishloq xo’jaligi ekinlari urug’lari va ko’chatlarini navdorlik va ekinboplik sifat ko’rsatkichlarini aniqlash hamda sertifikatlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Bunda, Inspektsiyaning Markaziy urug’chilik laboratoriyasida qishloq xo’jaligi ekinlari urug’lari va ko’chatlarining ekinboplik sifat ko’rsatkichlari aniqlanib, davlatlararo va milliy standartlar talablariga muvofiqligi baholanadi. Sinov natijalari ko’ra, muvofiq deb topilganda muvofiqlik sertifikati hamda nomuvofiq deb topilganda buyurtmachiga ekish uchun yaroqsizligi to’g’risida tahlil natijasi va xabarnoma yuboriladi.

Qishloq xo’jaligi ekinlari urug’lari va ko’chatlarini sertifikatlashtirishda ekin turlariga qarab qo’yidagi sifat ko’rsatkichlari aniqlanadi:

Urug’larning unuvchanligi, yashovchanligi, namligi, tozalik va boshqa aralashmalar miqdori, boshqa o’simlik va begona o’tlar urug’lari mavjudligi, kasallik va zararkunandalar bilan zararlanganligi, mexanik shikaslanganligi, 1000 dona urug’ vazni og’irligi va o’lchamlari kabi sifat ko’rsatkichlari aniqlanadi.